

BOLA HUQUQLARINI XALQARO HUQUQIY HIMOYA QILISH**Muxtorov Ozodbek Otabek o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti jinoiy odil sudlov fakulteti talabasi.

ozodbekmuxtorov4454@gmail.com

ORCID: 0009-0006-4895-9829

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14165624>

Annotatsiya. Maqolada bola manfaatlarini himoya qilishning xalqaro huquq tizimidagi ahamiyati, uning istiqbolli rivojlanishi uchun ta'sir qiluvchi omillar muhokama qilinib, bola huquqlariga oid xalqaro konvensiya va hujjarlar orqali faoliyat ko'rsatayotgan huquqiy mexanizmlarga asosiy urg'u qaratiladi hamda bola himoyasiga oid xalqaro huquqiy standartlarni shakllantirishning milliy qonunchilikka qo'shadigan hissasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bola huquqlari, huquqiy himoya, BMT, konvensiya, xalqaro standartlar, huquqiy mexanizm, milly qonunchilik.

INTERNATIONAL LEGAL PROTECTION OF CHILDREN'S RIGHTS

Abstract. The article discusses the importance of protecting the interests of the child in the international legal system, the factors affecting its future development, the main emphasis is placed on the legal mechanisms operating through the international convention on the rights of the child and documents, and the national role of the formation of international legal standards on the protection of the child. its contribution to legislation is analyzed.

Key words: child rights, legal protection, UN, convention, international standards, legal mechanism, national legislation.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ ЗАЩИТА ПРАВ ДЕТЕЙ

Аннотация. В статье рассматривается значение защиты интересов ребенка в международно-правовой системе, факторы, влияющие на ее перспективное развитие, акцентируется внимание на правовых механизмах, действующих посредством международных конвенций о правах ребенка и документов, а также международно-правовых норм. анализируется вклад образования в национальное законодательство.

Ключевые слова: права ребенка, правовая защита, ООН, конвенция, международные стандарты, правовой механизм, национальное законодательство.

I.Kirish

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) – Yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va havfsizlikni ta'minlash, davlartlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan

xalqaro tashkilot bo'lib, 1945-yil 24-oktabrda tuzilgan. BMTni barpo etish to'g'risidagi qaror Sovet ittifoqi, AQSH, Xitoy, Angliya, tashqi ishlar vazirligining Moskvadagi kengashida 1943-yil, Ustavi esa San Fransisko konferensiyasida 1945-yilda qabul qilindi. BMT ustaviga dastlab 51 ta davlat imzo chekkan bo'lsa 2000-yilda ular soni 189 taga yetdi. Bugungi kunda 193 ta davlat rasmiy a'zo bo'lib, 2 ta davlat kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi. BMT Ustavida ko'rsatilganidek, u xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqlarning teng huquqli bo'lishi va o'z taqdirini o'zi belgilashi qoidasiga amal qilib, millatlar o'rtasida do'stlik munosabatlarini rivojlantirishni, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy muammolarni hal etishda xalqlar o'rtasida hamkorlik bo'lishini ta'minlashni ko'zda tutib, shu umumiy maqsadlarga erishishda millatlar harakatini uyg'unlashtirib turadigan markaz hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam huquqiga egadirlar deya takidlaydi. Qolaversa, jamiyatning asosiy tashkiloti hisoblanmish oila va tibbiy muhitga uning barcha a'zolari, ayniqsa, bolalar o'sib-ulg'ayishlari va farovonlikka ega bo'lishlari uchun jamiyat doirasidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga to'liq oladigan bo'lishiga erishish maqsadida zarur himoya va yordam bilan ta'minlanishi lozim.

Bolaning shaxsi sog'lom va har tomonlama uyg'unlashgan holda kamolotga yetishi uchun u oila g'amxo'rligida baxt, mehr-muhabbat va ongli tushunish vaziyatida o'sishi darkor. Bolani mana shunday alohida himoya qilish zarurligi, bolalar himoyasi va farovonligi, ayniqsa, bolalarni milliy va xalqaro darajalarda tarbiyalashga berish hamda asrab olish paytidagi himoyasi va farovonligiga doir qoidalariga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Balog'atga yetmagan bolalarga nisbatan odil sudlov yuritishga doir minimal standart qoidalari ("Pekin qoidalari") va Favqulodda holatlarda va qurolli mojarolar davrida ayollar va bolalarni himoya qilish to'g'risidagi deklaratsiya qoidalariga tayanib, jahondagi barcha mamlakatlarda nihoyatda og'ir sharoitlarda yashayotgan bolalar borligi hamda ular alohida e'tiborga muhtoj ekanliklarini e'tirof etib, bolaning himoya qilinishi va uyg'un ravishda rivojlanishi uchun har bir xalqning an'analari va madaniy qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etishini munosib tarzda hisobga olib, har bir mamlakatda, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalarning turmush sharoitlarini yaxshilash uchun xalqaro hamkorlik qilishning muhimligini inobatga olib BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabr kuni Bola Huquqlari To'g'risidagi Konvensiya qabul qilindi. Ushbu hujjatda belgilanishicha 18 yoshga to'lmagan inson zoti bola hisoblanadi. Bundan tashqari, bola huquqlarini xalqaro himoya qilish, jahon miqyosida bolalar manfaatlarini ta'minlash va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator xalqaro hujjatlar va konvensiyalar mavjud bo'lib, ularning eng muhimlari quyidagilardir:

- Bola huquqlari to'g'risidagi fakultativ protokollar: Bu protokollar konvensiyaning o'ziga xos jihatlarini kengaytiradi, jumladan, bolalarning savdosi, ekspluatatsiyasi va harbiy harakatlarga jalb qilinishi kabi masalalar. Bu hujjatlar bolalarning himoyasini kuchaytirishga qaratilgan.

- BMTning Bolalar fondi (UNICEF): UNICEF bolalar huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi, har yili turli hisobotlar, tadqiqotlar va dasturlar orqali bolalarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshiradi.

- Regional konvensiyalar: Misol uchun, Evropa, Afrika va Amerikada bolalarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan o'ziga xos konvensiyalar mavjud bo'lib, ularning har biri mintaqaviy muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Bola huquqlarini himoya qilish, nafaqat qonuniy jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan ham muhimdir. Bolalar bizning kelajagimizdir, shuning uchun ularning huquqlari, sog'ligi va xavfsizligi har qanday jamiyat uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Bolalar uchun qulay muhit yaratish va ularning huquqlarini himoya qilish barchamizning burchimizdir.

II. Metodologiya

Ushbu maqolada bola huquqlarini xalqaro huquqiy himoya qilish masalalari o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik usullar qo'llanildi:

- Hujjatlarni tahlil qilish: Xalqaro konvensiyalar va hujjatlarni o'rganish, ularning mazmuni va qo'llanishini tahlil qilish.

- Statistik ma'lumotlar: UNICEF va boshqa tashkilotlarning hisobotlari asosida bolalar huquqlari himoyasi bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

- Taqqoslash: Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi bola huquqlari himoyasi bo'yicha qonunchilik taqqoslandi.

Ushbu metodologiya yordamida bola huquqlarini xalqaro huquqiy himoya qilishda mavjud muammolar, rivojlanish yo'nalishlari va takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari bolalarning himoyasini kuchaytirishga va milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

III. Natijalar

Bola Huquqlari To'g'risidagi Konvensiyada belgilanishicha: Ushbu xalqaro hujjat ishtirokchisi hisoblangan har bir davlat har bir bola uchun ko'zda tutilgan barcha huquqlarni, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, bolaning sog'lig'i va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoki biror bir boshqa holatlardan qat'iy nazar, hurmat qiladilar hamda shu huquqlarni ta'minlab beradilar.

Bolaning ota-onasi, qonuniy vasiysi yoki boshqa oila a'zolarining qarashlari yoki e'tiqodida o'z ifodasini topadigan maqom, faoliyat asosida kamsitish yoki jazolashning barcha shakllaridan bolaning himoyasini ta'minlash uchun hamma zarur choralarni ko'radilar. Ushbu davlatlar qatori O'zbekiston ham konvensiyani 1992-yil 9-dekabr kuni ratifikatsiya qilgan. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya bola huquqlarining keng doirasini ko'rib chiquvchi birinchi va asosiy majburiy xalqaro huquqiy hujjatdir. Hujjat 54 ta moddadan iborat bo'lib, 18 yoshga to'lmagan shaxslarning ochlik va muhtojlik, shafqatsizlik, ekspluatatsiya va boshqa holatlardan xoli bo'lgan sharoitlarda o'z imkoniyatlarini to'liq rivojlantirishga qaratilgan individual huquqlarini batafsil bayon etadi.

1948 yilgi BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam obyekti bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. 1959 yilda BMT Bola huquqlari deklaratsiyasini qabul qildi. Uning asosiy tezisi shundaki, insoniyat bolaga o'zida mavjud bo'lgan narsalarning eng yaxshisini berishga majburdir. U milliy va xalqaro darajada bolalarni himoya qilish va farovonligini ta'minlashning o'nta ijtimoiy va huquqiy tamoyillarini e'lon qiladi.

Deklaratsiya ota-onalar, jismoniy shaxslar, nodavlat notijorat tashkilotlari, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini unda belgilangan huquq va erkinliklarni tan olishga va hurmat qilishga intilishga chaqirdi. Shuningdek, deklaratsiyada bolalarni alohida himoya qilish, ularning erkinliklari va qadr-qimmatini hurmat qilish sharoitida sog'lom va normal rivojlanishi uchun imkoniyat va shart-sharoitlarni ta'minlash zarurligi qayd etilgan. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab hukumatlar va shaxslarning siyosati va amaliyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

IV. Muhokama

Afsuski dunyo bo'ylab bola huquqlari huquqiy himoyasi bo'yicha keng ko'lamli islohatlar natijasida turli tuman hujjatlar qabul qilingan bo'lsada, bola huquqlari to'liq ta'minlanganicha yo'q.

Zero, har qanday davlatning kelajagi hamisha yosh avlodga to'g'ridan to'g'ri bog'liq.

Bunga misol qilib Falastin, Sudan kabi davlatlardagi vaziyatlarni keltirishimiz mumkin.

G'azo sektoridagi urush bolalar uchun halokatli oqibatlariga olib kelmoqda. Falastin

Sog'liqni saqlash vazirligining so'nggi ma'lumotlariga ko'ra, 14,000 dan ortiq bola halok bo'lgan; yana minglab bolalar jarohat olgan.

Xavfsiz joylar yo'q. G'azo bolalarining barchasi urushning travmatik tajribalariga duch kelishdi, buning oqibatlari esa umr bo'yi davom etadi.

Taxminan 1.9 million odam - G'azo aholisining taxminan 9 foizi - ichki ko'chmanchi deb hisoblanadi. Ularning yarmidan ko'pi bolalar. Ular suv, ovqat, yoqilg'i va dori-darmon yetishmovchiligidan azob chekmoqda.

Ularning uylarini vayron qilingan; oilalari parchalangan.

Ko'plab bolalar bir necha marta ko'chirilgan va uy, ota-onalar va yaqinlarini yo'qotgan.

Ular himoya qilishni va tibbiy muassasalar hamda boshpana kabi qolgan xizmatlarga kirishni talab qilmoqdalar. G'azo bolalari tasavvurga sig'maydigan dahshatli voqealarni boshdan kechirdilar ular darhol o't ochishni to'xtatishni va tinch kelajak uchun imkoniyatga ega bo'lishni haqiqatan ham loyiqdirlar.

Sudanda esa millionlab bolalar yordamga muhtoj. Sudanda oilalar omon qolish uchun o'tlar bilan ovqatlanishga majbur bo'lmoqda, ochlik inqirozi yanada kuchayib bormoqda va ochlik darajasidagi malnutitsiya tez tarqalmoqda. 2023 yil aprel oyida to'qnashuvlar boshlanganidan buyon 12 milliondan ortiq odam o'z uylarini tark etdi, bu esa Sudanni dunyodagi eng katta ichki ko'chish inqiroziga aylantirdi. 2023 yilda "Save the Children" tashkiloti Sudanda 2.4 milliondan ortiq insonga, jumladan, favqulodda yordamimiz orqali 979,000 bolaga yordam ko'rsatdi.

Xulosa

Dunyoda bolalrni huquq va erkinliklarini huquqiy himoyasini ta'minlash borasida qator hujjarlar qabul qilingan. Hususan, Bola huquqlari to'g'risida xalqaro konvensiya, Bola huquqlari to'g'risidagi fakultativ protokollar, Regional konvensiyalar, Bola huquqlari deklaratsiyasi shular jumlasidan. Bolalrning kamsitilishiga, diskriminatsiya qilinishiga qanchalar harakat qilinmasin, ayrim mamlakatlarda hali hanuz inson huquqlarining muhim qismi hisoblangan bola huquqlarini ta'minlashda oqsoqlanish kuzatilmoqda. Ushbu masala yuzasidagi farq rivojlangan va qoloq mamlakatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunday vaziyatdan tezroq halos bo'lish uchun mening shaxsiy fikrim quyidagicha:

- Ta'limga teng imkoniyatlar yaratish: Ta'lim sifatini yaxshilash va barcha bolalarga, jumladan, qizlar, qishloq joylaridagi va nogiron bolalarga ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Buning uchun maktablar qurilishi, o'quv darsliklarini modernizatsiyalash va o'qituvchilarni o'qitishni rivojlantirish zarur.

- Sog'liqni saqlash xizmatlarini kengaytirish: Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish orqali bolalarning tibbiy yordamga oson kirishini ta'minlash mumkin. Emizish, emlash dasturlari, ovqatlanish va sanitariya bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish lozim.

- Zo'ravonlikka qarshi kurash: Bolalarni zo'ravonlik va ekspluatatsiyadan himoya qilish uchun xalqaro hamjamiyat va hukumatlar zo'ravonlikka qarshi samarali dasturlarni amalga oshirishlari lozim. Bu ota-onalar va jamoatchilikni o'rgatish, bolalarning xavfsizligini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

• Ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish: Kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash orqali bolalar farovonligini yaxshilash mumkin. Nafaqa tizimlarini rivojlantirish, oziq-ovqat yordam dasturlari va ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish orqali bu maqsadga erishiladi.

• Qizlar huquqlarini himoya qilish: Qizlarning ta'lim olish huquqini himoya qilish, ularni erta turmushga chiqishdan saqlash va gender tengligini mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni kuchaytirish kerak.

REFERENCES

1. United Nations. (1989). *Convention on the Rights of the Child: Preamble*. UN.
2. United Nations. (1948). Universal Declaration of Human Rights. General Assembly resolution 217 A (III).
3. Goldstein, G. (2010). *Children's rights: Education and development*. Routledge.
4. Sandberg, K. (2012). *Children's rights: A historical and practical approach*. Oxford University Press.
5. Evans, T. (2005). *Children's rights: Theories and practices*. Palgrave Macmillan.
6. Tobin, J. (2008). *International human rights law and children's rights*. Oxford University Press.
7. McLaren, P. J. (2010). *Children's rights and the child protection system*. *Journal of Social Work and Social Welfare*, 45(3), 235-249.
8. Freeman, M. (2007). *The convention on the rights of the child: A critical review*. *International Journal of Children's Rights*, 15(2), 130-145.
9. OpenAI. (2024, November 11). *ChatGPT (version 4)* [Artificial intelligence model]. OpenAI. <https://chat.openai.com/>